



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 25 yil “15-avgust

№ 255

Toshkent sh.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-sonli qarori 1-bandining "z" kichik bandida belgilangan ustuvor vazifalar hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2025-yil 11-iyuldaggi 25-sonli qarori topshiriqlari ijrosini ta'minlash, tizim xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirib borishning keng qamrovli tizimini joriy etish va ularning huquqiy bilimlari darajasini yanada oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 17-18-moddalariga asosan **b u y u r a m a n:**

1. Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Respublika o'rta tibbiyot va dorishunos xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hamda Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, shuningdek, ularning hududiy bo'linmalari va filiallari hamda tizimdagi barcha tibbiy oliy ta'lim muassasalarida 2025-2026-o'quv yilidan boshlab tegishliligi bo'yicha bakalavr (5-6-bosqich), ordinatura va magistratura (2-bosqich) talabalari va tinglovchilar (xodimlar)ning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirib borish uchun Vazirlik bilan birgalikda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlari asosida o'qitish hamda malaka oshirish tashkil etilsin.

2. Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Sh.Boymuradov), Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi (X.Akilov) hamda Respublika o'rta tibbiy va dorishunos xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi (L.Musadjanova), ularning hududiy bo'linmalari, filiallari, shuningdek, tizimdagi barcha tibbiyot oliy ta'lim muassasalari tegishliligi bo'yicha:

- o'qitish hamda malaka oshirish jarayoni bo'yicha barcha me'yoriy hujjatlarni mazkur buyruq talablariga muvofiqlashtirsin;

- bakalavr (5-6-bosqich), ordinatura va magistratura (2-bosqich) talabalari uchun "**Sog'lqni saqlash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish**" o'quv (modul) dasturini;

- tibbiyot muassasalarining rahbarlari, moliyalashtirish va buxgalteriya, tashkiliy – kadrlar va inson resurslarini rivojlantirish tuzilmalari hamda boshqa boshqaruv xodimlari, shuningdek, barcha shifokorlar va hamshiralar uchun **“Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish” moduli** asosida malaka oshirish o‘quv dasturlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlik bilan kelishgan holda tasdiqlasini.

Tasdiqlangan o‘quv (modul) reja va o‘quv dasturlari asosida:

- ta’lim jarayonlarini an’anaviy va masofaviy shaklda, ishdan ajralmagan holda tashkil qilish;

- o‘quv jarayoniga malakali mutaxassislar va amaliyotchi xodimlar (bunda Sog‘liqni saqlash vazirligi rahbariyati va markaziy apparatining tegishli turkibiy bo‘linmalari mas’ul xodimlari)ni jalb qilish, tinglovchilarning mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘zlashtirish samaradorligini tahlil qilib, chora-tadbirlar ko‘rib borish;

o‘quv kurslari bo‘yicha oraliq va yakuniy test sinovlarini o‘tkazish hamda sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan tibbiyot xodimlariga sertifikat berish ta’milansin.

Bunda, hududiy bo‘linmalar va filiallar, shuningdek, tizimdagи barcha tibbiy oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish va malaka oshirish Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Respublika o‘rtalik tibbiyot va dorishunos xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hamda Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi bilan Vazirlik tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

3. Sog‘liqni saqlash vazirligi hududiy boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari rahbarlari, Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Respublika o‘rtalik tibbiyot va dorishunos xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hamda Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, shuningdek, tizimdagи barcha tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga talabalarni va xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish va bilimlarini uzluksiz oshirish bo‘yicha o‘quv jarayonlarini tashkil etishga yaqindan ko‘maklashsin. Bunda:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitilishi lozim bo‘lgan xodimlar kontingenti shakllantiriladi va ta’lim muassasalari bilan kelishilgan holda yillik o‘qitish reja-grafigi tasdiqlanadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosati, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tahlillar natijalari inobatga olinib, yangi o‘quv modullarini joriy etish bo‘yicha ta’lim muassasalariga takliflar kiritiladi;

xodimlarning malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlar ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan byudjet mablag‘lari doirasida yoxud byudjetdan tashqari mablag‘lar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi;

o‘qitish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun ta’lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilinadi;

ta’lim muassasalari bilan birgalikda har chorakda Sog‘liqni saqlash vaziriga malaka oshirish faoliyati yuzasidan axborot kiritiladi.

4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (O.Sultonov) Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (S.Mamanov) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-sonli qaroriga asosan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalari markaziy apparati, tuman (shahar)lar bo‘limlari, tizim tashkilotlari va muassasalari hamda tibbiyot muassasalari boshqaruv xodimlarini 2025-yilning sentyabr-oktyabr oylarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bazaviy o‘quv kurslarida (bepul asosda) o‘qitilishini;

Sog‘liqni saqlash vazirligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, tizim tashkilotlari va muassasalari rahbarlari hamda boshqaruv xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha malakasini oshirishni “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida yillik o‘qitish reja-grafiqiga muvofiq to‘lovshartnomasi asosida tashkillashtirsin.

5. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (S.Mamanov), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (O.Sultonov) hamda Fan-ta’lim va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Ismailov) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha doimiy nazorat o‘rnatsin hamda rahbariyatga axborot kiritib borsin.

6. Devonxona (Yu.Maxmudova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda tarkibiy va hududiy bo‘linmalarga hamda tizim tashkilotlariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



A. Xudayarov